

O‘ZBEKISTONDA ME’MORLIK USLUBLARI INTEGRATSIYASINING SAMARADORLIGI VA ZAMONAVIY ME’MORCHILIKDAGI FUNKSIONAL ASOSLARI



Ra’no Alimjanovna Ziyayeva
2-bosqich tayanch doktorant
O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi xodimi

Email: ranoshka_3485@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-01-18>

Annotatsiya: Zamonaviy o‘zbek me’moriy inshootlarining milliy an’analarga qanday asoslangani, tarixi va madaniy meros bilan bog‘liqligi, hamda zamonaviy arxitekturaga integratsiya qilishning ahamiyati yoritilgan. Bu mavzudagi tahlillar ahamiyatli va murakkabdir. O‘zbekistonning zamonaviy me’morchiligida milliy bezaklarni saqlash va yangi talablarga javob berish uchun zamonaviy va an’anaviy usullarni uyg‘unlashtirish muhim muammo ekanligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlari: me’moriy inshootlar, zamonaviy arxitektura, an’anaviy bezaklar, loyiha, turar joy binolari, ichki va tashqi hovli, mehmonxona, “ARK” me’morchilik korxonasi.

Аннотация: Современные узбекские архитектурные сооружения основываются на национальных традициях, имеют связь с историческим и культурным наследием, а также важность интеграции в современную архитектуру. Анализ данного вопроса является важным и сложным. В современной архитектуре Узбекистана сохранение национальных украшений и гармоничное сочетание современных и традиционных методов для удовлетворения новых требований является актуальной задачей.

Ключевые слова: архитектурные сооружения, современная архитектура, традиционные украшения, проект, жилые здания, внутренний и внешний двор, гостиница, архитектурная компания «АРК».

Abstract: Modern uzbek architectural structures are based on national traditions, have a connection with historical and cultural heritage, and emphasize the importance of integration into contemporary architecture. The analysis of this issue is significant and complex. In modern architecture in Uzbekistan, preserving national decorations and harmoniously combining modern and traditional methods to meet new requirements is a key task.

Keywords: architectural structures, modern architecture, traditional decorations, project, residential buildings, interior and exterior courtyards, hotel, architectural company "ARK".

O‘zbekistondagi zamonaviy me’moriy inshootlarning shakli va dizayni ko‘pincha, milliy an’analar, tarixiy va madaniy meros bilan bog‘liq bo‘lib, milliy qadriyatlarni saqlashga, hamda zamonaviy talablarga javob berishga intiladi. Me’moriy loyihalarda an’anaviy o‘zbek elementlari, ranglar, shakllar va tabiiy materiallardan foydalanish shakli mamlakatning tarixiy hususiyatlarini zamonaviy arxitekturaga integratsiya qilishga intiladi. Hozirgi davrga kelib yangi me’moriy qurilmalar vujudga keldi. Ko‘p qavatli uylar, yangi qiyofadagi jamoat binolari qad ko‘tardi. Binoni tashqi va ichki tomonlarini bezash, kenglikni tashkil etish borasida ham muayyan yutuqlarga erishib kelinmoqda. Turar joy binolarining go‘zalligi va ixcham bo‘lishi hozirgi kunda ham, kelajakda ham me’morlarimiz, quruvchilarimiz qolaversa har bir oila uchun muhim bo‘lib qoladi. Xalq turar joy binolarini qurishda uning xajmi, joyning muhiti, tabiati, iqlimi va sharoitlarini hisobga olgan holda qurilish ishlari amalga oshiriladi.

Turar joy binosini qurishda xalq hunarmandlari asosiy e’tiborni uning turar-joy va sanoat qismlarini aniq ajratishga qaratganlar. Turar joy hovlisi ikki qismga ajratilgan. Bitta hovlida oila

a'zolari uchun yashash xonalari, oshxona va omborxonalar qurilgan bo'lsa, ikkinchi hovlida esa ishlab chiqarish va xo'jalik binolari hamda begonalarni qabul qilish xonalari qurilgan. Bu tashqi hovlidan — ishlab chiqarish va tashqi dunyo bilan aloqa qilish uchun foydalanilgan. Agar uyning egasi hunarmand bo'lsa, uning tashqi hovlisida ustaxona va mijozlar bilan ish yuzasidan o'tkaziladigan muzokara xonasi va yashash xonalari bo'lgan. Agar uy egasi qishloq xo'jaligi bilan shug'illanadigan inson bo'lsa, hovli atrofida chorva mollar va yem-xashak saqlash uchun xonalar mavjud bo'lgan. Savdogar yoki amaldorning tashqi hovlisida yozgi va qishki xonalar tashrif buyurgan mehmonlarni qabul qilish uchun xizmat qilgan. Bunday hovlilarda otxona va omborxonalar joylashtirilgan. O'zbek xonadonining ichki hovlisida ko'p xonalar joylashtirilgan. Chunki oila boshi o'g'illarini uylantirganda ham, ularni alohida chiqazib yubormaslikka harakat qilganlar. Hattoki oila boshi vafot etgan taqdirda aka-ukalarning kasbi bir hil bo'lsa, ular merosni bo'lishmaganlar [1.C.7-9].

O'zbekistondagi zamonaviy me'moriy inshootlarning ko'pchiligi qadimiy shaharlar va tarixiy an'analardan ilhom olganligi bilan tanilgan. Misol uchun, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlardagi me'moriy inshootlardagi qubbalar tarxi va me'moriy bezak namunalari zamonaviy me'morlar tomonidan qayta ishlangan. Zamonaviy binolarda an'anaviy dizayn elementlari, masalan, shaxmat shaklidagi chizgilar, nafis gullarga o'xshash bezakdor tokchalar va plitkalar ko'zga tashlanadi.

Mahalliy sharoitda binolarni qurish uchun asosan loy, yog'och, quritilgan guvala va loyli g'isht ko'rinishidagi qurilish materiallari ishlatilgan. XIX asr oxirigacha aksariyat shahar va qishloq joylardagi turar-joy binolarining devorlari qurutilgan loydan qurilgan. Keyinchalik devorlar asosan yog'och karkas asosida qurila boshlangan. XIX asrning oxirgi o'n yilligida va XX asr boshlarida esa pishgan g'ishtdan foydalanildi. Devorlardan tashqari poydevorlar, pollar va ayvon dandanalari pishgan g'ishtdan terilgan. Xalq me'morlari g'isht quyish texnikasini ustalik bilan o'zlashtirganlar. Ular bu pishgan g'isht orqali quruvchilikdagi barcha badiiy yondashuvga ega bo'lganlar. Eshik, darvoza, eshik chetlari, ustunlar-qayrag'och yog'ochidan, shiftlarning xoshiyasi, karkasi va alohida bezaklari-terakdan yasalgan. Markaziy Osiyo sharoitida yog'ochdan nafaqat qurilish xom-ashyosi sifatida, balki badiiy dekorativ ashyo sifatida foydalanganlar. Uy va xonalarning ayvon qismini, shifti, ustunlar, eshik va tokchalarni yog'och o'ymakorlik san'ati asosida bezaganlar [2.B.31]. Galereya va ayvonlarning makon shakllari va ularning nur va soyalari alohida xonalarning dekorativ ravishda ishlangan sathi bilan birlashtirilgan. Nozik va jonli ustunlar ustun poyustuni va asosiga o'zgacha joziba bag'ishlagan. Devor va shiftlarning ranglari va soyalar bilan yumshatilgani ayvonning umumiy ahamiyatini huddi badiiy kompozision yechim singari ko'rsatib bergan. Ayvon oldidagi supa esa hovliga o'tish yo'lagini ta'minlagan. Me'moriy detallar, deraza romlari, ustunlar, ayvon va undagi galereyalar atrof muhitni yanada qulayligini ta'minlagan [1.B.8].

Me'moriy an'analarni saqlash bilan birga, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Binolarning qurilishida tabiiy materiallar, masalan, oxak toshi, sopol, tuproq va tabiiy yog'lardan foydalanishni ko'rish mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy xom ashyolar — shisha, beton va metall qorishmalari ham ko'pincha an'anaviy elementlar bilan muvozanatda bo'lgan tarzda ishlatiladi. Bu esa milliy va zamonaviy me'moriy aralashma o'rtasidagi san'atni saqlashga yordam beradi. Me'moriy an'analarning saqlanishi nafaqat estetik, balki ma'naviy va madaniy ahamiyatga ega. Milliy me'moriy shakllar va elementlar jamoat uchun tarixiy xazina sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali jamiyat o'zining madaniy merosini e'zozlaydi. Zamonaviy me'moriy inshootlar esa shunday an'analarni davom ettirish va yangi avlodga yetkazish vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda o'zbek me'morlari milliy an'analarni zamonaviy loyihalarga moslashtirishda ijodiy yondashuvlar qo'llay boshladi. Har bir me'moriy loyiha milliy urf-odatlar va milliy naqsh-bezaklardan ilhom olish bilan birga, zamonaviy hayotning talablariga javob beradigan yangi, funksional yechimlarni taqdim etadi. Me'morlar zamonaviy urbanistik muhitda milliy ishlash usullarini saqlashga intilishadi, masalan, qo'llab-quvvatlash va ustuvor sifatlar bilan

birga binoning tarixiy ahamiyatini yaratadi. Hozirgi paytda milliy an'analarning dolzarbligi yangicha hususiyat kasb etib bormoqda.

O'zbekistondagi jiddiy muammolardan biri, me'morchilik o'zining asl qiyofasini yo'qotib borayotganligidadir. Chunki, alyukobond, metall va shisha kabi zamonaviy xom-ashyolarining keng qo'llanuvchi zamonaviy me'morchilik mamlakatimiz hududlarining me'moriy-badiiy an'analari va o'ziga xosligini aks etmay qo'ydi. Chunki O'zbekistonning har bir hududi turar-joy binolarining o'ziga xos me'moriy hususiyatlariga ega. Uning tashqi va ichki makonini uyg'unlashtirish azaldan o'zbeklar maishiy turmushining asosiy tamoyili bo'lib kelgan. Yuqorida yozganimizdek, hovlilar tashqi va ichki qismga bo'lingan. Toshkent va Buxorodagi qurilish ishlari oqilona tashkil qilinganligi bilan ajralib turadi. Unda har bir qarich yerdan oqilona tarzda foydalanilgan. An'anaviy me'morchilikda mintaqalarning iqlimiy hususiyatlari hisobga olinganligi sabab, Toshkent, Buxoro va Xivada baland, chiroyli bezatilgan yozgi xonalarning old tomoni shimolga, qishki xonalarniki esa janubga qaratilgan hovlilar qurilgan. Xorazm hovlilarining o'ziga xos hususiyati shundaki, ichki ayvonlar shimol tomondagi umumiy tomdan baland bo'lib, ular yozda tabiiy salqinlikni hosil qilgan [3].

Natijada, O'zbekistondagi me'morchilik an'analarining saqlanishi va uning zamonaviy talablari bilan muvofiqlashtirilishi muhim muammo bo'lib qolmoqda. Zamonaviy xom ashyolar va konstruksiyalar, agar to'g'ri ishlatilmasa, milliy me'morchilikning asl qiyofasini yo'qotishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, har bir mintaqaga xos iqlimiy va madaniy hususiyatlar, aniq me'moriy an'analarni hisobga olish, zamonaviy arxitekturani qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish zarur. Bu o'z navbatida, o'zbek xalqining tarixi va madaniyatini saqlashga yordam beradi va zamonaviy me'morchilikda milliy autentiklikni ta'minlaydi.

O'zbekistonning an'anaviy turar-joy me'morchiligi va tarixiy me'moriy yodgorliklarining o'ziga xos hususiyatlarini tahlil qilsak, biz ularda me'morchilik bilan tasviriy va amaliy-bezak san'ati o'zaro uzviy bog'liq ekanligini ko'ramiz. Unda bir vaqtning o'zida rang-barang, noyob va nafis xom-ashyolar birgalikda qo'llanilgan bo'lib, mashhur me'moriy obidalarining aksariyatida bir qancha badiiy bezak usullari birlashtirilgan. Afsuski, zamonaviy me'morchilikda me'morchilik va amaliy-bezak san'ati bir-biridan uzoqday ko'rinadi. Me'moriy bezaklar zerikarli tus olib bormoqda. Bu faqatgina me'moriy bezaklardagi muammo emas. Me'morchilikda san'atlar aralashuvi sezilmaydi, barchasi bir-biridan alohidaga o'xshaydi. Zamonaviy ob'yektlarda san'at tobora kam ishlatiladigan kichik qo'shimcha unsurga aylanib bormoqda[3].

Bundan esa zamonaviy me'morchilikda me'morchilik va amaliy-bezak san'ati o'rtasidagi uzviy bog'lanish yo'qolib borayotganiga guvoh bo'layapmiz. Bu arxitekturaning estetik va ma'naviy qadriyatlarini kamaytirmoqda. Tarixiy me'morchilikda esa, san'at va me'morchilik bir butun bo'lib, badiiy bezaklar, xom ashyolar va boshqa unsurlar birgalikda ijodiy va funksional maqsadlarga xizmat qilgan. Zamonaviy me'morchilikda esa bu bog'lanish yo'qolib, badiiy elementlar ko'pincha qo'llanilmasdan, asosan amaliyot va texnik talablarga asoslanadi. Natijada, bino va muhitlar estetik jihatdan jozibasini yo'qotib, insonga estetik quvvat va ma'naviy ozuqa taqdim etmaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda o'z loyihalari orqali me'morchilikda an'analar uzluksizligi muhimligini ko'rsatib beruvchi me'morlarimiz faoliyat olib kelmoqda. An'ana va zamonaviy muhitni uyg'unlashtiruvchi iste'dodli me'morlar qatoriga buxorolik me'mor Zoirsho Qilichevning me'moriy loyihalari jamiyatimizga talaygina ma'naviy foyda olib kelmoqda.

Zoirsho Qilichev Fransiya, Belgiya va Rossiyalik hamkasblari bilan hamkorlikda Buxoro karvonsaroylarini ijod markazlari sifatida qayta tiklash va moslashtirish ustida 25 yildan ortiq vaqt mobaynida mehnat qilgan me'mor va ta'mirlovchidir. U Buxoro me'morchiligining tarixiy an'analarni talqin qilgan holda, turar joy binolarini loyihalashtiradi va ularga zamonaviy tus beradi. Z.Qilichev loyihalari Buxoro shahrining tarixiy qismida amalga oshirishga ruxsat berilgan me'morlardan biri hisoblanadi. Uning ishlarida Buxoro me'morchiligining eng yaxshi an'analari mujassamlangan bo'lib, ularda zamonaviy va tarixiy muhit o'zaro uyg'unlashtirilgan[3]. O'zining ishlari doirasida Z.Qilichev O'zbekistonda Fransiyaning san'at va adabiyotni rivojlantirish

yoʻlidagi xizmatlari uchun mukofotlangan meʼmorlardandir. U oliy maʼlumotli meʼmorlar bilan bir qatorda Fransiya va Oʻzbekiston oʻrtasidagi madaniy aʼloqalarning mustahkamlanishiga oʻz hissasini qoʻshgan.

Fransiyaning Oʻzbekistondagi elchixonasining saytida berilgan maʼlumotlarga koʻra Oʻzbekiston fuqarolari Zoirsho Qilichev va Tolib Nizomov kabi meʼmorlarimiz “Sanʼat va adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangan, deb xabar berilgan. Unga koʻra, arxitektor tarixiy yodgorliklarni qayta tiklash boʻyicha mutaxassis Z. Qilichev Fransiya–Oʻzbekiston “Sharq yoʻlidagi karvonsaroylar” uyushmasining asoschilaridan biri boʻlib, ushbu uyushma Buxoroda Isteza madrasasini tiklagan va shu bilan birgalikda u yerda madaniy markaz tashkil qilingan. U yerda ikki karvonsaroyni qayta tiklagan. “Sanʼat va adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun” ordeni Fransiya va chet el davlatlarining fuqarolariga Fransiya va xorijda sanʼat va adabiyotni targʻib qilishdagi xizmatlari uchun taqdirlanadi. Hozirga qadar faqat ikki Oʻzbekiston fuqarosi–Nataliya Musina va Marinika Babanazarovalar ushbu mukofotga sazovor boʻlgan[4]. Zoirsho Qilichev Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutini tugatgan va Buxoroda koʻp yillar davomida arxitektura sohasida faoliyat yuritayotgan malakali mutaxassis. U turli yillarda Buxorodagi ilmiy-restavratsiya ustaxonalari, arxitektura yodgorliklarini restavratsiya va konservatsiya qilish ilmiy-tadqiqot institutida, shuningdek, Buxoro muzey-qoʻriqxonasining bosh arxitektorligida ishlagan. Zoirsho Qilichev 1997-2003- yillarda Buxoro shahrining bosh arxitektori sifatida faoliyat yuritgan va 2003-yildan boshlab “ARK” arxitektura firmasi bilan ishlab kelmoqda. U shuningdek, fransiya arxitektura assosatsiyalaridan “Karvonsaroy” va “Taselatus” aʼzosi hisoblanadi. U Buxorodagi tarixiy yodgorliklarni restavratsiya qilish va ularni modernizatsiya qilish borasida Fransiya bilan hamkorlikda Buyuk Ipak Yoʻliga bagʻishlangan badiiy ijodiy markazni yaratishda faol ishtirok etgan. Meʼmor tomonidan ishlab chiqilgan loyiha, Buxorodagi eski bozorlarni tiklashga qaratilgan. Shuningdek bu meʼmorlik kompaniyasi tomonidan bir nechta zamonaviy mehmonxonalarni anʼanaviy uslubda barpo etgan. Ulardan biri 60 ga yaqin xonalarga ega boʻlgan Mercure Bukhara Old Town mehmonxonasi loyihasidir. Mehmonxona dizayni Zoirsho Qilichev tomonidan ishlab chiqilgan boʻlib, u arxitektura va interyer dizaynida ushbu mintaqaning tarixi va madaniy merosiga ishora qilgan bir qator detallarni yaratgan. Mehmonxona arxitekturasi eski shahar manzarasini oʻzida aks etadi, interyer dizayni esa mehmonlarga mahalliy koloritga samarali baho berish imkoniyatini beradi. Mehmonxona interyeri XVI-XIX asrlarda qurilgan binolarning arxitekturasini yodga soladi. Mehmonxona Buxoro meʼmorchiligiga xos boʻlgan baland ayvonli ichki hovlilil qilib qurilgan. Bezaklarida buxoroni anʼanaviy xom ashyolari ishlatilgan. Masalan, buxoroni gʻisht (gʻishti obi), somon suvoq, oxak tosh va qoʻlda qilingan sopol bezaklardan foydalanilgan. Mehmonxonaning kirish qismi Buxoroning yopiq savdo koʻchalaridan ilhomlangan holda loyihalashtirilgan. Shuningdek, mehmonxona ayvonli va kichik favvorali ichki hovlilil, tabiiy yorugʻlik tushib turadigan xona va yoʻlakka egadir. Oʻzbekistonga xos boʻlgan chiroyli mozaikalar, rang-barang ramzlar va abstrakt geometrik bezakli dizaynlar mehmonxonaga yanada fayz berib turibdi.





Yuqorida ta’kidlaganimizdek, 60 ga yaqin shinam xonalar turli qatlamga bo‘lingan. Har bir xona eski shahar ko‘rinishini, yoki tinch, osoyishta hovli manzarasini ochib beradi. Mehmonlar uchun hamma sharoitlar yaratilgan. Shinam ish joyi, tropik dushli vannadan tortib, choy ichish uchun zamonaviy chinni to‘plamlarigacha o‘ylab ishlangan. Interyer zamonaviy yevropa uslubida, lekin o‘ziga xos sharqiy kolorit bilan uyg‘unlashgan. Rang-barang bezakli ornamentlar xonalarning turli detallarida, masalan, yostiqlar, kursilar va hatto choy to‘plamlarigacha an’anaviy uslubda bezatilgan.

“ARK” me’morchilik korxonasi binolarining eksteryeri va interyerini loyihalashtirishda an’anaviy materiallarni zamonaviylari bilan mohirona uyg‘unlashtirgan holda qo‘llaydi, ko‘p hollarda an’anaviy bezaklarga murojat qiladi[3]. Me’morchilik korxonasi ishlari o‘ziga xos bo‘lib, ular darhol e’tiborni tortadi, boshqa ishlardan ajralib turadi, ko‘p narsalarga yangicha nazar solishga undaydi.

Xulosa qiladiga bo‘lsak, o‘zbek me’moriy inshootlari zamonaviy rivojlanishda, milliy an’analarining saqlanishi va rivoji yo‘lida juda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayonda zamonaviy texnologiyalar va eski an’analarining sintezi milliy madaniyatning kelajagini ishonchli ravishda shakllantiradi. Me’moriy va madaniy merosni saqlash, o‘zbek me’moriy san’atining salohiyatini namoyon qilishga yordam beradi va globallashuv jarayonida ham milliy shaxsni belgilashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy va an’anaviy me’morchilik usullari orasidagi muvozanatni saqlash va tarixiy merosni saqlash muhimdir. Buning uchun me’moriy loyihalarda milliy elementlar, tabiiy xom ashyolar va zamonaviy texnologiyalarning uyg‘unligi zarur. Zoirsho Qilichev va boshqa me’morlar o‘z loyihalarida milliy an’analarini zamonaviy muhit bilan birga integratsiya qilishga e’tibor qaratilgani alohida diqqatga sazovordir. Bu mavzudagi ishlar arxitekturaning ijodiy yo‘nalishini, hamda ularning tarixiy va madaniy ahamiyatini yo‘qotmasdan, yangi avlodga yetkazish masalasini ko‘rsatadi. Me’morchilik va san’atning o‘zaro bog‘lanishi ham, zamonaviy loyihalarda ko‘proq his etiladigan muhim jihat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Архитектурное наследие Узбекистана. Академия наук Узбекской ССР. Институт искусствознания, Издательство Академии наук Узбекской ССР. Ташкент-1960. С.250.
2. Б.В.Веймарн. Архитектурно-декоративное искусство Узбекистана. Государственное архитектурное издательство. 1948г. С.62.
3. М.Мирпо‘latova. Zamonaviy o‘zbek me’morchiligida milliy an’analarini saqlab qolish muammolari. “San’at”jurnali. №89. 4/2020.
4. Ўзбекистонликларга Франциянинг “Санъат ва адабиёт соҳасидаги хизматлари учун” ордени тақдим этилди. <https://kun.uz/kr/114448>